



# “KO‘Z” KOMPONENTLI SO‘Z BIRIKMALARINING LINGOPOETIK MASALALARI<sup>1</sup>

Jumaniyazov Atabay

Toshnazarova Dilnavoz Olimovna

*filologiya fanlari nomzodi*

*Urganch davlat universiteti professori*

*E-mail: [atabeyjumaniyazov@gmail.com](mailto:atabeyjumaniyazov@gmail.com)*

*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [toshnazarovadilnavoz@gmail.com](mailto:toshnazarovadilnavoz@gmail.com)*

*ORCID ID: 0000-0002-8310-415X*

## ANNOTATSIYA

## KALIT SO‘ZLAR

Maqolada "ko‘z" komponentli so‘z birikmalarining turlari va ularning muloqotdagi qo‘llanilishi o‘rganilgan. "Ko‘z" so‘zi insonning ko‘rish hissi bilan bog‘liq bo‘lib, bu turdagi birikmalar uch guruhga ajratilgan. Berilgan misollar morfologik, o‘zaro o‘rin almashuvi va semantik jihatdan tahlil qilingan. "Ko‘z" komponentli so‘z birikmalarining semantik tahlili o‘z ichiga 8 ta kichik guruhni olgan bo‘lib, misollar yordamida ma’nolar izohlanilgan.

Komponent, besh hissiy a‘zo, ko‘z sifatleri, ko‘z funksiyalari, morfologik tahlil, o‘zaro o‘rin almashuv, semantik tahlil.

"Ko‘z" so‘zi "so‘z" (til birligi) va "leksema" (shakl va mazmun jihatdan bir butun holda tekshiriladigan mustaqil ma’noli lug‘aviy birlik sifatida) sifatida muloqotda qo‘llanilishi haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Lekin bu leksema bilan juda to‘plangan yasama so‘zlar, qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalari, iboralar, frazeologik birliklar, aforizmlar, hikmatli so‘zlar va maqollar yaratilganki, ular tilshunoslikda hanuzgacha tavsif, tasnif va tahlil nuqtayi nazaridan yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

**Received:** August 15, 2024

**Accepted:** September 12, 2024

**Available online:** November 15, 2024

Maqolada "ko‘z" komponentli so‘z birikmalari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Maqola "ko‘z" sifatleri bilan bog‘liq so‘z birikmalari, birikmalardagi ko‘z funksiyalariga ishoralar, birikmalarda ko‘z funksiyasining bajarilishida hissiy omillar, shuningdek, so‘z birikmalarining morfologik tahliliga ham to‘xtalangan.

**Copyright** © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

<sup>1</sup> **Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):**

Jumaniyazov A., Toshnazarova D. O. "Ko‘z" komponentli so‘z birikmalar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

# ВОПРОСЫ ЛИНГВОПОЭТИКИ СЛОВСОЧЕТАНИЙ С КОМПОНЕНТОМ “ГЛАЗ”

**Жуманиязов Атабай**

кандидат филологических наук  
профессор Ургенчского государственного  
университета  
E-mail: [atabeyjumaniyazov@gmail.com](mailto:atabeyjumaniyazov@gmail.com)

**Тошназарова Дилнавоз Олимовна**

докторант Ургенчского государственного  
университета  
E-mail: [toshnazarovadilnavoz@gmail.com](mailto:toshnazarovadilnavoz@gmail.com)  
ORCID ID: 0000-0002-8310-415X

| АННОТАЦИЯ                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА                                                                                                                                                                                                                                                       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>В статье приводятся наблюдения за словосочетаниями, включающими в свой состав компонент “глаз”. Слово глаз имеет значение “зрительный орган чувств человека”. Нами были изучены три группы словосочетаний с данным компонентом. Дополнительно этот материал был проанализирован с точки зрения морфологии, синонимии и семантики. Семантический анализ словосочетаний с компонентом “глаз” проводился на материале 8 подгрупп, значения внутри каждой из них интерпретировались на примерах.</p> <p>Целью данного исследования является изучение места, количества и качества употребления слова (языковой единицы) и лексемы (лексической единицы с самостоятельным значением, рассматриваемой как единое целое с точки зрения формы и содержания) “глаз” в речевой коммуникации. Данная лексема входит в состав большого количества сложных и составных слов, словосочетаний, фразеологических единиц, афоризмов, крылатых слов и пословиц, которые еще недостаточно изучены в лингвистике с точки зрения описания, классификации и анализа. В публикуемой статье представлены некоторые наблюдения за словосочетаниями с компонентом “глаз” и их использованием в коммуникации.</p> <p>В статье анализируются словосочетания, определяющие признаки “глаз”, их функции, участие других органов зрения, а также морфологический, семантический и анализ взаимозаменяемости компонентов.</p> | <p>Компонент, пять органов чувств, качества глаз, функции глаз, морфологический анализ, взаимозаменяемость, семантический анализ.</p> <p><b>Received:</b> August 15, 2024<br/><b>Accepted:</b> September 12, 2024<br/><b>Available online:</b> November 15, 2024</p> |

**Copyright** © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

# LINGUOPOETIC ASPECTS OF WORD COMBINATIONS WITH THE “EYE” COMPONENT

**Jumaniyazov Atabay**

*candidate of philological sciences  
Professor, Urgench State University  
E-mail: [atabeyjumaniyazov@gmail.com](mailto:atabeyjumaniyazov@gmail.com)*

**Toshnazarova Dilnavoz Olimovna**

*Doctoral student of Urgench State University  
E-mail: [toshnazarovadilnavoz@gmail.com](mailto:toshnazarovadilnavoz@gmail.com)  
ORCID ID: 0000-0002-8310-415X*

| ABSTRACT                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | KEYWORDS                                                                                                                                                                                                                                                          |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>The article expresses an opinion about the types of word combinations in which the “eye” component is involved. The term “eye” is defined as the sensory organ of responsible for human vision. Compounds belonging to this type were studied in three groups. In addition, the given examples were analyzed morphologically, changing its place and semantically. The semantic analysis of word combinations with an eye component includes 8 subgroups, and the meanings are explained with the help of examples.</p> <p>The objective of this study is to examine the place, number, and quality of the use of the term “eye” in communication with the term “word”, which represents a language unit, and “lexeme”, which is defined as a lexical unit with an independent meaning that is examined as a whole in terms of form and content. In this regard, it is important to consider the opinions expressed by various scholars on this subject. A substantial number of artificial words, compound words, phrases, phraseological units, aphorisms, wise words, and proverbs have been created with this lexeme, which has yet to be sufficiently studied in linguistics in terms of description, classification, and analysis. This article presents some opinions about word combinations with the “eye” component and their use in communication.</p> <p>The article contains word combinations related to the adjective “eye”, references to the function of the eye in compound words, other sensory factors of eye function in compound words, as well as morphological analysis of word combinations. Additionally, it addresses issues of interaction between the components of a compound word, such as place exchange analysis and semantic analysis (relatively distinct meanings).</p> | <p>Component, five sensory organs, eye qualities, eye functions, morphological analysis, interchange, semantic analysis.</p> <p><b>Received:</b> August 15, 2024</p> <p><b>Accepted:</b> September 12, 2024</p> <p><b>Available online:</b> November 15, 2024</p> |

**Copyright** © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

## KIRISH

Ma'lumki, ko'z odamning besh hissiy a'zolaridan biri bo'lib, uning hayotida eng muhim rol o'ynaydi. Ko'z orqali inson (hamma tirik mavjudotlar kabi) obyektiv borliqdagi barcha narsa va hodisalarni ko'radi (kuzatadi), shakli-shamoyili (rangi, tanasi, hajmi, miqdori, sifati, yoshi va hokazolar)ni zohiran farqlaydi, ta'sirlanadi, optik mushohada qiladi. Ko'z haqida berilgan ta'riflardan anglashilib turibdiki, insonning dunyoni idrok qilishida va hayotda normal (baxtli) turmush kechirishida uning xizmati bebaho, biroq boshqa hissiy (eshitish, tam bilish, hid sezish, tana orqali farqlash) a'zolaridan farqi (yagona) ham borki, u qorong'ida yuqorida nomlangan o'z funksiyalarini to'liq bajara olmaydi, buning uchun ko'z yorug'likka - *kunning ziyo taratishi, oyning nur sochishiga*-muhtoj. Boshqa hissiy a'zolarida bunday muhtojlik yo'q, ular yorug'liksiz ham o'z vazifalarini bekam-ko'st ado etishaveradi. Binobarin, tabiatan eshitish (quloq tutish), tam bilish (yeyish), hid sezish (isqab ko'rish), tana orqali (issiq-sovuq, ho'l-quruq, qattiq-yumshoq, katta-kichik, og'ir-yengil, og'riq-huzur) narsalarni farqlash uchun quyoshning yorishi yoki oyning nuri zarur emas. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash lozimki, barcha hissiy a'zolar faoliyatining amalga oshishida har birining o'ziga xos alohidaligi (mutlaqlik) bor, yoxud birining funksiyasini ikkinchisi bajara olmaydi. Chunonchi, ko'z eshitmaydi - quloq ko'rmaydi yoki burun tam bilmaydi—og'iz esa hid. Lekin masalaning (ko'zga nisbatan) e'tiborga loyiq bir tomoni ham borki, barcha hissiy a'zolar orqali sezilgan ta'sirlanish, qilingan mushohadada ko'z ishtirok qilsa narsa va hodisalar idroki yanada oshadi, kuchli bo'ladi. Darhaqiqat, gulni ko'rib hidlash, taomni ko'rib yeyish, ovoz sohibini ko'rib eshitish va tanamiz orqali farqlanilayotgan narsa-hodisalarni ko'rib bilish, ko'rib o'qish va ko'rib yozishning xosiyati juda katta, beqiyosdir.

Yuqorida "ko'z" ning inson hayoti va faoliyati davomida 5 hissiy a'zolaridan biri sifatidagi yetakchi o'rni bobida baholi qudrat so'z yuritdik.

Ma'lumki "ko'z" o'zining shakli va mazmuni bobida o'ziga xos (spetsifik) xususiyatlariga ega. U rangi, hajmi, ko'rinishi, holati, harakati, tibbiy yaroqliligi va funksiyalarini bajarish qobiliyati bilan avvalo hissiy (jismoniy) a'zo sifatida o'zi, qolaversa turli shaxslarga mansub mucha (tana qismi) sifatida insoniyat tomonidan

keskin farqlaniladi. Uning o'zi va aloqador shaxslariga nisbatan o'zgaligini aniq farqlash, xususiyatlarini mantiqan to'la ajrata olish uchun "ko'z" so'zi ko'plangan va rang-barang sifatlovchilar bilan uchraydiki, ularni ko'rib xalqimizning so'z birikmalari yasashdagi ijodkorligiga hayratlanmay bo'lmaydi. Tubanda ularning soni (100 dan oshiq) va sifati (shakl o'zgarishi, birikma holatida o'zaro tobe-hokim, asosiy va yordamchi, bosh va ergash, aniqlovchi-aniqlanmish, ifodalovchi-ifodalanmish bo'lib kelishlari, komponentlarning o'zaro ma'no mushtaraklik xususiyatlari) jihatidan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Avvalo so'z birikmalarida komponent bo'lib kelayotgan "ko'z" so'zining birikmadagi o'rni va vazifalari haqida to'xtalamiz. Ta'kidlash lozimki "ko'z" komponenti muayyan birikmalarda hokim (qaratqich)lik vazifasini bajaradi. Aksar holatlarda "ko'z" komponenti tobe (qaralmish) lik xususiyatiga ega bo'ladi. Ayrim holatlarda esa "ko'z" komponentlari o'rnini o'zgartiradilar yoxud birikmaning tarkibiy tartibida bosh va ergashlik vazifalari almashilinadi. Shu xususiyatlarni inobatga olib, "ko'z" komponentli birikmalarni 3 turga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Birikmalarda ko'z sifatlaniladi.
2. Birikmalarda ko'z funksiyalariga ishora qilinadi.
3. Birikmalarda ko'z funksiyasining bajarilishida boshqa hissiy omillar ham qatnashadi.

***Ko'z sifatlari bilan bog'liq bo'lgan so'z birikmalarida*** odatda ko'zning rangi, hajmi, shakli, holati, harakati, quvvati, soni va boshqa ko'zga xos alohida jihatlar ifodalaniladi:

a) rang: *qora ko'z qiz* , *ko'k (yashil) ko'z odam* , *sariq ko'z bola*, *moviy ko'z qo'g'irchoq*, *qo'ng'ir ko'z millat* , *ola ko'z o'g'ri* kabilar.

b) hajm: *katta ko'z*, *kichik ko'z*, *mitti ko'z*, *tog'ora ko'z*, *baqachanoq ko'z*, *bit ko'z*, *mujik(michchi)ko'z (sheva)*; Eslatma: Birikmalardagi tog'ora, baqachanoq, bit aniqlovchi komponentlar ko'z shakliga ham aloqador ma'noda tushunilishi mumkin. Biroq muloqotda bizning fikrimizcha bu sifatlovchilar orqali birinchi navbatda ko'zning hajmi inobatda tutilib, xulosa qilinadi.

d) shakl: *tik ko'z*, *egik ko'z*, *qiya ko'z* , *qiytiq ko'z*, *qiyshiq ko'z*, *g'ilay ko'z*,

yumaloq ko'z, charos ko'z; Eslatma: tubanda (e-guruhda) ko'zning holat-xususiyatiga aloqador deb berilgan ayrim so'z birikmalarini ular uchrayotgan kontekstga qarab, "ko'z" hajman ham tushunilishi mumkin. Masalan, qisq ko'z birikmasi ifodasida ko'zlar ham hajman (to'liq ochilmagan ko'z), ham shaklan (ko'z tabiatan qisq, qisq ko'zli koreys, yapon, xitoy xalqi) mushohada qilinadi.

e) holat: *nam ko'z, quruq ko'z, ochiq ko'z, yopiq ko'z, berk ko'z, yumuq ko'z, yarimochiq ko'z, yarimyopiq ko'z, yarimyumuq ko'z, chalaochiq ko'z, chalayopiq ko'z, chalayumuq ko'z, to'laochiq ko'z, to'layopiq ko'z, to'layumuq ko'z, sog' ko'z, sog'lom ko'z, kasal ko'z, qon ko'z, bedor ko'z, g'amgin ko'z, shodon ko'z, xumor ko'z, oshiq ko'z, xira ko'z, yaltiroq ko'z, ko'r ko'z, tund ko'z, chaqan ko'z, qo'rqq ko'z, botir ko'z, qattiq ko'z, mast ko'z, nochor ko'z, olov ko'z, o'chik ko'z, nashtar ko'z;*

f) harakat: *chaqchaygan ko'z, baqraygan ko'z, to'sraygan ko'z, qiyshaygan ko'z, jikkaygan ko'z, o'ynoqi ko'z; suyuq ko'z, buzuq ko'z, nozli ko'z, nozsiz ko'z, iboli ko'z, ibosiz ko'z, xayoli ko'z, hayosiz ko'z, jilvali ko'z, jilvasiz ko'z, uyatchan ko'z, uyatsiz ko'z, andishali ko'z, andishasiz ko'z, o'g'ri ko'z;*

g) quvvat: *jonli ko'z, jonsiz ko'z, kuchli ko'z, kuchsiz ko'z, zo'r ko'z, chala ko'z, ojiz ko'z, quvvatli ko'z, quvvatsiz ko'z, o'tkir ko'z, jodu ko'z, sehrli ko'z, nurli ko'z, nursiz ko'z, sodda ko'z, shum ko'z, ayyor ko'z, shayton ko'z, makkor ko'z, qotil ko'z, so'lg'in ko'z;*

h) o'xshatish: Ma'lumki olamda insondan boshqa mavjudotlarda ham ko'z bor. Ularning funksiyasi bir xil, biroq ko'rinishlari, tanada joylashuvi turlicha. Insonlar o'z ko'zlarini ularga (bo'ta ko'z) qiyoslab, yoki ularnikiday bo'lishni (burgut ko'z) istab, ko'zlarning (o'zaro) ichki, tashqi va mantiqiy o'xshashliklari asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirib ataydilar. Shu ma'noda tadqiqot jarayonimizda inson ko'zini parranda va darrandalar bilan qiyoslab kelayotgan bir qancha ko'z komponentli so'z birikmalariga duch keldik. Masalan:

a. yovvoyi, yirtqich hayvonlar (*tulki ko'z, bo'ri ko'z, shaqal ko'z, qoplon ko'z*);

b. yovvoyi, o'txo'r hayvonlar (*kiyik ko'z, ohu ko'z, jayron ko'z*);

c. uy (xonaki) hayvonlari (*qo'y ko'z, bo'ta ko'z, mushuk ko'z*);

- d. yovvoyi, yirtqich qushlar (*burgut ko‘z, lochin ko‘z, qirg‘iy ko‘z*);
- e. mahalliy qushlar (*chumchuq ko‘z, hakka ko‘z, musicha ko‘z, secha ko‘z(shevada)*);
- f. kemiruvchilar (*sichqon ko‘z*);
- g. sudralib yuruvchilar (*ilon ko‘z, kaltakesak ko‘z, echkiemar ko‘z, xameleon ko‘z*);
- h. hashoratlar (*bit ko‘z, ninachi ko‘z, chayon ko‘z*);
- i. suv hayvonlari (*baqa ko‘z, qurbaqa ko‘z, toshbaqa ko‘z*).
- j. son va miqdor: *bir ko‘z, ikki ko‘z, to‘rt ko‘z, yakka ko‘z, juft ko‘z, qo‘sh ko‘z*.

Eslatma: muloqotda ayrim o‘xshatishlarda “ming ko‘z” birikmasi ham uchraydi.

Masalan, *Senda bir ko‘z bo‘lsa, xalqda ming ko‘z bor*.

***Birikmalarda ko‘z funksiyalariga ishora qilinadi.*** Bu turdagi so‘z birikmalari orqali berilayotgan axborot, ma’lumot yoki ta’kidlarda ko‘zning insonning 5 hissiy a’zolaridan biri sifatida jonzotlar tomonidan obyektiv borliqni idrok qilinishidagi vazifalari nazarda tutiladi. Tabiiyki, ko‘zning asosiy vazifasi “ko‘rish”dir. Darvoqe, inson hayotda o‘ziga duch kelgan yoki ishi tushgan narsa va hodisalarni ko‘rish orqali ilg‘aydi, ularga nazar tashlab, nigoh qaratib, farqlaydi. Bu jarayonda bani odam uchun “ko‘z”ning asosiy vazifasi narsa va hodisalarni ikkiga - yaxshi va yomonga ajratib berishdir. Kezi kelganda shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, “ko‘z” insonning (issiq) tana a’zosi, u sog‘ yoki kasal, qobil yoki noqobil, faol (aktiv) yoki nafaol (passiv), yaynab turgan yoki zo‘rg‘a ochiladigan bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda ko‘zning o‘z funksiyalarini ijobiy bajarilayotganini ifodalash uchun *yaxshi ko‘z, o‘tkir ko‘z, zo‘r ko‘z, chaqnoq ko‘z, chanqoq ko‘z, qiziqqon ko‘z, yaltiroq ko‘z, sog‘ ko‘z, sog‘lom ko‘z* kabi so‘z birikmalari muloqotda faol uchraydi. Ko‘zning o‘z vazifasiga salbiy munosabatlarini bildirish uchun *yomon ko‘z, o‘tmas ko‘z, chala ko‘z, xira ko‘z, kasal ko‘z, ko‘r ko‘z* kabi birikmalarni kundalik hayotda har qadamda kuzatish mumkin. Qayd qilingan so‘z birikmalarning hammasi nutqimizda faol, muloqotda umumtushunarlidir. Biroq ular ichida “ko‘r ko‘z” so‘z birikmasi borki, uning yaralishini milliy tilimizda fenomenal hodisa deb sharhlash mumkin. Nainki, “ko‘rmoq” (narsa va hodisalarni) optik mushohada qilish, vizual tuyushni bildiradi va ko‘z o‘z vazifasini to‘la bajarayotganini anglatadi. Biroq

mazkur harakat (holat)ni anglatayotgan fe'lining ijobiy o'zagi "ko'r", salbiy ma'no bildirib ko'rmaydiganlarni yoxud ko'z o'z vazifasini bajarmayotganini anglatadi. Bu holatni "ko'zli" (ko'zi bor- ko'radi, demak ijobiy ma'no) so'zining muloqotda (Xorazm shevasida) esa ko'zi ko'rmaydigan odam (salbiy) ma'nosida ishlatilishini kuzatish mumkin. E'tiborlisi shundaki, lug'atlarimizda "ko'zli" so'zi "ko'z" ning to'g'ri va ko'chma ma'nolarida o'z vazifalarini ijobiy bajarayotganini ta'kidlashi qayd qilingan. Chunonchi O'zbek tilining izohli lug'atida *"Miryoqubday qora va chiroyli ko'zli ...erkakni qaydan topib bo'ladi?"* misolini "ko'zi bor" ma'nosida, *"Ko'zli dehqon ekansan, ukam. Tan berdim."* misoli bilan "o'tkir ko'z"lilikni, *"Ko'zli odam qattiq tikilsa, otdan qulatadi."* misolida "ko'zi ta'sirli, ko'zi tegadigan" odamni ifodalab, "ko'z" o'z vazifalarini yaxshi va yomon, ijobiy bajarayotgani ta'kidlaniladi. Biz yuqorida qayd qilgan "ko'zli" so'zining salbiy – ko'z o'z vazifasini bajarmayotgan ya'ni "ko'r" ma'nosi lug'atlarimizda qayd qilinmagan, demak hali tilimizda kodifikatsiyalanmagan. Biroq so'zlashuv tilimizda "Falonchi qariganida ko'zli bo'libdi." yoki "Falonchi yoshgina yigit edi, avtofalokat sababli endi ko'zli bo'lib qolibdi" qabilidagi gaplar tez-tez uchraydi.

***Birikmalarda ko'z funksiyasining bajarilishida boshqa hissiy omillar ham qatnashadi.*** Inventarimizda "ko'z" so'zi ishtirokida uchragan *dono ko'z - nodon ko'z, aqlli ko'z - aqlsiz ko'z, sezgir ko'z - sezmas ko'z, bilgir ko'z - bilmas ko'z, topqir ko'z - topmas ko'z, ongli ko'z - ongsiz ko'z, anglovchi ko'z - anglamas ko'z, farqlovchi ko'z-farqlamas ko'z, ma'noli ko'z – ma'nosiz ko'z, xayolchan ko'z, o'ychan ko'z, yaynoq ko'z, o'tli ko'z* kabi so'z birikmalari borki, ularda ko'z tana a'zosi sifatida funksiyalarining bajarishi jarayonida inson ruhining ham hamjihatligi yaqqol seziladi. Nainki, donolik, aqllilik, sezgirlik, bilgirlik, topqirlik, onglilik, farqlash, ma'nolilik, o'ychan, xayolchan bo'lish kabi insonga xos fazilatlar dastavval ko'z bilan bog'liq bo'lsada, ularning xulosaviy mushohadasi ruh bilan bog'liq. Aslini olganda barcha hissiy a'zolar ishtirokida qalbimizda uyg'onadigan tuyg'u, yoxud obyektiv dunyoni farqlash uchun "ruh" zarur. Fikrimizni yanada soddaroq tushuntirmoqchi bo'lsak, tana a'zolarimiz sifatida ko'z ko'raveradi, quloq eshitaveradi, tilimiz tamni, burnimiz hidni bilaveradi, tanamiz ham o'z navbatida

issiq-sovuq, ho‘l-quruq, qattiq –yumshoq, og‘ir- yengil bilan munosabatda bo‘laveradi. Biroq bari besamara kechadi, muayyan natija bo‘lmaydi. Shu sabab inson ular haqida na tafakkur va na mushohada qila oladi, umuman hech narsani his qilmaydi. Bunga aniq isbot sifatida ruhiy ojiz, nogiron insonlarni misol keltirish mumkin. Ular na ovqat va na tayoq yeganini sezishadi. Bu “behuda”lik 5 hissiy a’zomizning tabiatan mohiyatidir. Ularning kerakligi insonga obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarni farqlashda, umum maqsadga erishishda vositachilik qilishlari bilan belgilanadi. Lekin ko‘zning boshqa hissiy a’zolaridan alohida bir tomoni borki, u ham bo‘lsa tana va ruhimizda kechayotgan hislarni farqlash, ta’sirlanish tuyg‘usi, tafakkur va mushohadamiz samarasining ko‘zda aks etishidir. Tabiatdagi har qanday voqelik oynada aks etganidek, inson tabiatidagi har qanday jarayon uning ko‘zi vositachiligida moyana ko‘rinadi. Xalqimizda “Ko‘z – qalb oynasidir” degan maqol bor. Binobarin, inson ko‘ziga qarab unda kechayotgan jismoniy va ruhiy kechinmalarni anglash mumkin. Quloqqa, burunga, tilga yoki gavdaga qarab emas. Shu ma’noda tana va ruh hamjihatligini faqat va faqat ko‘z ko‘rsatadi, pirovard natijada ko‘z avvalo hissiy a’zo sifatida o‘zini, keyinchalik funksiyasini amalda bajarayotganligini namoyon qilish bilan birga, ularga qo‘shilib ruhimizni ham tarannum qiladi. Barcha shaxsiy (botiniy va zohiriy) kechinmalarimizni aytib (fosh qilib) turadi.

Yig‘ilgan misollar tahlilini mantiqan 3 guruhga bo‘lib qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

1. So‘z birikmalarining morfologik tahlili;
2. Birikma komponentlarining o‘zaro o‘rin almashuvi;
3. Semantik (o‘zaro ma’no mushtarakligi) tahlil.

**1.Morfologik tahlil.** Bunda avvalo yig‘ilgan misollarda muayyan shakl o‘zgarishlari, komponentlarning turli so‘z turkumlariga oidligini qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, “ko‘z” komponenti birikmalarda ot so‘z turkumi sifatida uchrasa, uning xususiyatini bildiruvchi komponentlar ot, sifat, son, fe‘l (harakat nomi) kabi turkumlarga xos:

- a) ot+ot: (ohu ko‘z, bo‘ta ko‘z, qo‘y ko‘z, burgut ko‘zbit ko‘z, tog‘ora ko‘z,

shisha ko‘z, linza ko‘z);

b) sifat+ ot: (qora ko‘z, ola ko‘z, ko‘k ko‘z, kichik ko‘z, o‘tkir ko‘z, g‘ilay ko‘z, yakka ko‘z, juft ko‘z );

d) son+ot: (bir ko‘z, ikki ko‘z, to‘rt ko‘z);

Keltirilgan misollarning shakl o‘zgarishi masalasiga kelsak, birikmalardagi tobe so‘zlar yozilish va aytilish shakllarini deyarli o‘zgartirmaydilar, hokim so‘z (ko‘z) aniq nomlanadi. Atalish, o‘xshatish, solishtirish, chog‘ishtirish, qiyoslash asosida kechsa, tobe so‘zlarga **-day**, **-dek**,<sup>2</sup>**-nikiday**, **-nikidek**<sup>3</sup> suffikslarni qo‘shish mumkin: *tog‘oraday ko‘z*, *shishadek ko‘z*, *ohunikiday ko‘z*, *burgutnikidek ko‘z*.

Ot+ot birikmalardagi har ikkala komponentga ham **-day**, **-dek**, **-nikiday**, **-nikidek** qiyoslash yuklamalaridan birini morfologik jihatdan qo‘shib qo‘llash mumkin. Bu so‘zning qurilish shakllarining o‘zgarishi qoidalariga zid emas. Istalgan bir alohida olingan ot yoki otlashgan so‘z turkumiga mazkur suffikslarni qo‘shib aytsa bo‘ladi. Misol tariqasida *ohu ko‘z* birikmasidagi har ikkala komponentni yakka holda olamiz va mazkur qo‘shimchalar yordamida yasama so‘zlar (*ohuday*, *ohudek*, *ohunikiday*, *ohunikidek* yoki *ko‘ziday*, *ko‘zidek*, *ko‘zinikiday*, *ko‘zinikidek*) quramiz. Yasalgan so‘z birikmalari til me‘yorlariga mos va grammatik, semantik va stilistik jihatdan to‘g‘ridirlar. Endi bu qo‘shimchalarni *ohu ko‘z* birikmasining birinchi komponenti *ohuga* qo‘shib chiqamiz. Natijada *ohuday ko‘z*, *ohudek ko‘z*, *ohunikiday ko‘z*, *ohunikidek ko‘z* kabi so‘z birikmalari yasaladi. Keyin aynan shu qo‘shimchalarni mazkur birikmaning ikkinchi komponenti *ko‘zga* qo‘shamiz, natijada *ko‘zi ohuday*, *ko‘zi ohudek*, *ko‘zi ohunikiday*, *ko‘zi ohunikidek* tashbehlar yasaladi. Endi so‘z birikmalari orqali berilayotgan xabarga diqqat bilan qarasak, ularning ayrimlari (-nikiday, -nikidek qo‘shimchalilar)da to‘laqlonlilik bor, ma‘lumotni aniq idrok qilish mumkin. Ammo **-day**, **-dek** qo‘shimchalari orqali yasalgan birikmalarda, bu ikkala komponentgayam xos, mantiqiy qusurlarga yo‘l qo‘yiladi, negaki *ko‘z ohuday* yoki *ohu ko‘zday* bo‘lmaydi. Ular ikkalasi ikki narsa, biri tana a‘zosi,

<sup>2</sup>-day//dek ot,sifat,olmosh turkumidagi so‘zlardan qiyoslash,o‘xshatish yo‘li bilan predmet va ish-harakatning belgisini bildiruvchi sifat va ravish yasaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent 2020,5-jild,577-b.

<sup>3</sup>-niki ot yoki olmoshlarga qo‘shilib, qarashlilik ma‘nosini anglatadigan, shakl yasovchi affiks.O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent 2020,5-jild,586-b.

ikkinchisi esa shu a'zoga ega bo'lgan hayvon. Bunday yasalgan so'z birikmalari orqali aytilish maqsadidagi fikrni (gap nima haqida ketayotganini) anglash mumkin, lekin mazkur so'zlardan foydalanish uslubi bobida stilistik xato kechgan bo'ladi, fikr teran chiqmaydi. Bu tariqa so'z birikmalarini yasash yoki gaplar tuzish kundalik hayotda, so'zlashuv tilida juda ko'p uchraydi.

So'z birikmalardagi bu singari so'z shakli o'zgarishlari faqat ot+ot qolipiga xos, yuqoridagi qo'shimchalarni sifat+ot, son+otli birikmalarga qo'shib, to'g'ri semantik va sintaktik munosabat hosil qilib bo'lmaydi. Zero, yuqoridagi qiyoslash yuklamalar orqali shakllangan til birliklari ot so'z turkumidan yasalgan nisbiy sifatlardir. Asliy sifatlarga esa yana qiyosiy sifat yasovchi suffikslar qo'shish fikr almashuvida ortiqchalik qiladi. Masalan, *qora ko'z* so'z birikmasidagi *qora* komponentiga nazdimizdagi suffikslarni qo'shib, *qora+day ko'z*, *qora+dek ko'z*, *qora+nikidek ko'z*, *qora+nikidayko'z* qiyoslovchi yuklamalarni qo'shish lisoniy xatolarga olib keladi. Tilimizga bunday so'z birikmalarini yasash umuman xos bo'lmagan va keyin ham yasab bo'lmasa kerak. Tabiiyki bunday yondashish son+ot tarkibli birikmalarga ham to'g'ri kelmaydi. Sonlar aniq va mutlaq bo'lganligi sababli, ya'ni birikmada aniqlovchilik vazifasini o'tab kelsalar ularni (to'rtdek, beshday, oltinikidek, yettinikiday deb) qiyoslab bo'lmaydi. Mabodo sonlar so'z birikmasida aniqlanmish bo'lib kelsalar yuqoridagi yuklamalar yordamida birikma hosil qilishlari mumkin. Masalan, *ikkinikiday quyruq*, *oltinikiday qorin*, *yettinikidek irmoq*, *sakkiznikiday aylana* kabi.

O'z navbatida bu taqlid birikmalarda hokim so'z ham **-li** qo'shimchasini olishi mumkin: *ohu ko'zli*, *burgut ko'zli*, *shisha ko'zli*. Bunday birikmalarda **-li** qo'shimchasi hokim so'zga qo'shilib, uning o'zagidan anglashilayotgan narsa va hodisani haqiqatan bor va mavjudligini yana bir bor ta'kidlaydi. Darvoqe, *ohu ko'z* so'z birikmasi mavjud tana a'zosini shundayin bildirsa, *ohu ko'zli* leksemasi biror shaxsning *ohu ko'zga* ega ekanligini atayin nomlaydi. Kezi kelganda eslatish lozimki, ot+ot tarkibli birikmalarda, ot so'z turkumiga oid, biroq nisbiy sifat vazifasini ifodalab kelayotgan komponentlarni asliy sifatlarga monand ravishda darajalab bo'lmaydi. Ya'ni *ohuliroq ko'z*, *eng ohu ko'z*, *shisharoq ko'z*, *eng shisha ko'z*

morfologik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, muloqotda “ko'z” ning bunday ifodalanishi faol emas, erish tuyuladi, stilistik jihatdan esa xato kechib, muayyan ma'noda til normalarini buzilishini bildiradi. Mabodo “ohu ko'zlar” ko'p bo'lib, ularning chiroylisidan-chiroylisini farqlash (qiyoslash) zarur bo'lib qolsa, “Eng ohu ko'z falonchiniki ekan” deb hukm chiqarish mumkin. Lekin bunaqasiyam hayotda uchrayvermaydi.

## **2. Birikma komponentlarining o'zaro o'rin almashuvi.**

“Ko'z” tarkibli so'z birikmalarining o'ziga xos alohida xususiyatlaridan biri shuki, ulardagi o'zaro daxldor so'zlar o'rinlarini (tarkibiy tartibini) almashtirib qo'llanishlari mumkin. Muloqotda ular odatiy hol deb tushuniladi. Masalan *ohu ko'z-ko'zi ohu*, *qora ko'z-ko'zi qora*, *to'rt ko'z-ko'zi to'rt*, *yakka ko'z-ko'zi yakka*, *quvnoq ko'z-ko'zi quvnoq*, *bo'yama ko'z-ko'zi bo'yama* va boshqalar. Bir qarashda mazkur birikmalar sintaktik-semantik jihatdan aynidek ko'rinadi, shaklan va ma'nan farqlar deyarli (-i egalik qo'shimchasini e'tiborga olmaganda) sezilmaydi. Suhbat qatnashchilarining esa mazkur o'rin almashishlarning sababi va maqsadiga qiziqish xayoliga ham kelmaydi. Muhokama qilinayotgan shaxs *ohu ko'zmi* yoki uning *ko'zi ohuligi* suhbat mavzusida bosh masala bo'lmasa, birikmalardagi tarkib almashuvi variantdoshlik sifatida tushuniladi, ular o'zaro monand deb qaraladi. Hatto tilshunosligimizda ham hanuzgacha bu ikki til hodisasi (*ohu ko'z* – so'z birikmasi, *ko'zi ohu* - gap) semantik- sintaktik jihatdan yetarlicha tahlil qilinmagan. (Tadqiqotimiz jarayonida analog tahlillarga duch kelmadik.) Yuqorida (*ko'zi ohu*) gap deb bildirilgan fikrimizga ayrim e'tirozlar bo'lishi mumkin. Yoxud mazkur misol tadqiqot ish davomida so'z birikmalari qatorida nomlanilib kelsa-yu, “endi unga gap deyilsa?” - qabilida. Endi bu boradagi shaxsiy mulohazamizni tasdiqlashga harakat qilamiz. Bunday xulosaga kelish avvalo masalaga qaysi nuqtayi nazardan yondashuvga bog'liq. Misollarga morfologik (so'z qurilishi, so'z shaklining o'zgarishi, so'z turkumlari) jihatdan qaralsa ular – *so'z birikmalari* hisoblaniladi. Endi ularga sintaktik (gap, gapning qurilishi, gap belgilari) nuqtayi nazaridan qaralsa, ular til grammatikasida *gap* sifatida o'rganiladi. Endi “ko'zi ohu” so'z birikmasiga sintaktik jihatdan yondashib, grammatik tahlil qilamiz. Darvoqe, *ko'zi ohu* -misolida

soʻz birikmasi belgilariga qaraganda, gap belgilari namoyon koʻrinadi. Nainki, birikmada ega va kesim boʻlmaydi, bu misolda esa ular bor, chunonchi, kim?, nima? –javob *koʻzi*, demak ega, *koʻzi* qanaqa (*dir*) – javob *ohu(dir)*- demak ot kesim, “e(r)moq” feʼlining kopulativ shakli bilan ifodalangan. Odatda kesimning vazifasi eganing *nima qildi, nima qilyapti, nima qilmoqchi* ekanligini aytish bilan emas, balki eganing kim, nima, qanaqa, qanday, nechta? ekanliklarini ham bildirib keladi, masalan: *koʻzi ohu(dir), koʻzi sogʻ(dir), koʻzi chiroyli(dir), koʻzi toʻrt(dir)*. Taʼkidlash joizki, yuqoridagi misollarda gapga xos boʻlgan boshqa asosiy belgilar ham mavjud, masalan: “shaxs“- *koʻzi* (III), “son”- birlik, “zamon”- hozirgi, “predikativlik”-fikir bayoniga shaxsiy munosabat bildirilishi, birikma tarkibidagi soʻzlar orqali bildirilgan “fikir” ham aniq. Bunday belgilar birikmalar (*ohu koʻz*)ga xarakterli emas.

Kezi kelganda yana shu narsani taʼkidlamoqchi edikki, soʻz birikmalari tilshunoslikda hozirgacha til sathlarining sintaksis (gap qurilishi shakllari) boʻlimida oʻrganilib kelinmoqda. Aslida soʻz birikmalari til sathining morfologiya (soʻz qurilishi shakllari) boʻlimida grammatik jihatdan oʻrganilishi kerak. Birikma tarkibidagi til birliklarini semantik (soʻz, soʻz yasalishi, soʻz maʼnolari) jihatdan oʻrganilish lozim boʻlsa, bu tilning leksik sathi boʻlib, uning bilan leksikologiya fani alohida shugʻullanadi. Nainki, soʻz, yasama soʻz, qoʻshma soʻz, takror soʻz, juft soʻz va frazalar (frazologizm)ga aylangan soʻzlarning paydo boʻlishi, kelib chiqishi (etimologiya), maʼnosi (semasiologiya), narsa va hodisalarni atash va koʻrsatishi (onomasiologiya), frazalarga aylanishi (frazologiya) kabi til hodisalari leksikologiyaning alohida boʻlimlari hisoblaniladi. Qisqacha aytganimizda, soʻz birikmalarining qurilish shakllari oʻzgarish jihatdan morfologik, fikir bayoni shakllari oʻzgarishi jihatdan sintaktik, maʼno oʻzgarishi jihatdan esa semantik (leksikologik) nuqtayi nazardan qarab oʻrganilishlari maqsadga muvofiqdir. Zero, soʻz birikmalari oʻzlarining nutqdagi oʻrni, maʼnolari, sintaktik-semantik jihatlari, predikativlik xususiyatlari, tobe-hokimlik holatlari, ega-kesimlik munosabatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadigan boʻlinsa, biz ishora qilayotgan farqlar yaqqol koʻrinadi, soʻz birikmalari orqali atalayotgan, koʻrsatilayotgan, bildirilayotgan maʼlumotlar yanada oydinroq tushuniladi. Oydinlikning yana bir sifati borki, birikma tarkibidagi soʻzlar

oʻrni oʻzaro almashtirilsa va bu hodisaga falsafiy (filosofik) nuqtayi nazardan qaralsa, birikma berayotgan maʼlumot narsalarning umumiylik va xususiylik kategoriyalarini taqozo qilayotganini kuzatish mumkin. Darvoqe, *qora koʻz* birikmasida koʻzning bir sifati (qora ekanligi) nazarda tutiladi, umunga xos (umumiylik) voqelik (*qora koʻz* boʻlish – umum oʻzbek xalqimizga oidligi) inobatda turadi. *Koʻzi qora* birikmasida esa aynan va xossatan bir shaxs nazarda tutiladi, xususiylik taʼkidlaniladi.

Fikrimizcha, soʻz birikmalarida komponentlarning oʻrin almashib qoʻllanilishlari mohiyatan yuqorida baholi qudrat tavsiflandi.

Endi soʻz birikmalardagi komponentlarning almashinib qoʻllanilishi, ulardan nutqda foydalanishni tilimizning norma meʼyorlariga mos kelishi va kodifikatsiya talablariga javob berishi masalasiga kelsak, muayyan soʻz birikmalarini hali lugʻatlarimizda toʻla qayd (kodifikatsiya) qilinmaganligini va ularning ayrimlarini nutqda qoʻllash hali faol emasligini, suhbatdosh tomonidan toʻla tan olinmasligi, baʼzan maʼqul koʻrinmasligini qayd qilish mumkin. Bu haqida navbatdagi faslimizda bafurjaroq toʻxtalamiz.

### **3.Semantik tahlil.**

“Koʻz” komponentli soʻz birikmalarining semantik tahlili jarayonida induktiv (oddiydan murakkabga tomon) metodi asosida ish tutdik, avvalo soʻz birikmasining har bir komponenti maʼnosi bilan qiziqildi, keyin esa soʻz birikmalari komponentlarining umumiy maʼno mushtarakligi diqqat markazimizda boʻldi. Nainki, birikma tarkibidagi har bir soʻzning oʻziga xos maʼnolarini bilmay turib, uning toʻliq soʻz birikmasi sifatida nima haqida maʼlumot berayotganini maqsadga muvofiq anglab boʻlmaydi. Soʻz birikmasining biz ishimizda ilmiy jamoatchilikka tavsiya qilgan umumiy *“Leksik maʼno va grammatik shakl jihatdan oʻzaro mushtaraklashib kelgan ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlar soʻz birikmasi deyiladi”* taʼrifi ham shuni taqozo qiladi. Shu nazd bilan “koʻz komponentli“ soʻz birikmalari tarkibida qoʻllanilayotgan mustaqil soʻzlar maʼnosi bilan qiziqiladigan boʻlsa, birikma tarkibida hokim vazifasini bajarayotgan “koʻz” inventarimizda yigʻilgan barcha misollarda maʼno jihatdan nisbatan turgʻun, birikmalarda u mustaqil soʻz sifatida faqat bir (monosem) maʼno (koʻrish aʼzosi)ni anglatadi. Barcha rang-

barangliklar “ko‘z” (ko‘rish a‘zosi)ni *hokim so‘z* sifatida ifodalab va aniqlab kelayotgan *tobe so‘zga* daxldor ravishda aks etadi. Buning tavsifi yuqorida ishimizning 2.2-faslida baholi qudrat, to‘liq berildi. Quyida esa birikmalarda *tobe so‘z* vazifasini o‘tab kelayotgan komponentlarni ma‘no jihatdan tasnif va tahlil qilamiz:

**1) Rang:** Ko‘zning rangi bilan bog‘liq so‘z birikmalarini ma‘no jihatdan tahlil qilish nisbatan sodda, hamda nisbatan murakkab. Tahlilning yengilligi shundaki, *rangni* hissan va ruhan oson sezamiz. Murakkabligi esa shundaki, rang nima ekanligini hech kim ayta olmaydi, ta‘rif ham bera olmaydi. Fikrimizni misol bilan oydinlashtirishga harakat qilamiz. Ma‘lumki, ko‘zi ko‘r odam hech narsani ko‘rmaydi, shu ma‘noda rangni ham. Siz unga dunyoning go‘zalligini, rang-barangligini, *ranglar* esa har-xil- qizil, ko‘k, oq va qora bo‘lishini aytasiz. Mabodo u qiziqib *rang* nimaligini sizdan so‘rasa unga siz ham *rangni* to‘laqonli ravishda tushuntira olmaysiz. Rang bu narsa va hodisalarni, quyosh yorug‘ligi ta‘sirida turli xil aks etishi deb tang vaziyatdan qutulmoqchi bo‘lasiz. Nima deganingizni o‘ylab ko‘rsangiz, *rang* bobida hech vaqo aytolmaganingizga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz. Endi o‘sha odam mabodo yorug‘lik nima deb so‘rab qolsa, uni ham tushuntira olmaysiz, boshingiz navbatdagi baloga qoladi. Ta‘kidlamoqchimizki, *rangni* ko‘r odamga mutlaqo tushuntirib bo‘lmaydi. Chunki uni ko‘rar ko‘zi yo‘q. Bizda esa ko‘z ham, ruh ham bor. Faqat rangni ta‘riflashga tilimiz ojizlik qiladi. Buning sababi bizningcha rangni obyektiv borliqda mustaqil narsa yoki hodisa sifatida mavjud emasligidir. Rang doimo ikkinchi bir narsaga bog‘liq bo‘ladi, uning tusini yorug‘lik yordamida aks ettiradi, yoxud rangni narsa yoki hodisadan alohida ajratib bo‘lmaydi. Chunonchi, olmaning qizilligini olmoqchi bo‘lsangiz po‘sti bilan keladi. Endi u olma po‘stiga daxldordir. Mabodo rang olma mag‘ziga singgan bo‘lsa uni ajratish o‘ta mushkuldir. Endi uni siqib chiqaraman desangiz rang – suv bilan chiqadi, uni sharbat timsolida ko‘rasiz. Shu ma‘noda inson yuzidagi qizillikni paydo bo‘lishi, yo‘qolishi, qayoqqa ketishi holatlarini tasavvur qiling va undan qizillikni ko‘rga yoki o‘zingizga ajratib ko‘rsatishni bir tasavvur qiling. Bu narsalar ilohiy xilqat va uni biz osiy bandalar bilishga mutlaq ojizmiz. Lekin inson ko‘zi bilan ko‘rib turgan va ruhan sezgan

narsasi haqida biror narsa deyishga doimo harakat qiladi. Shu ma'noda *rangning* nima ekanligiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Rang bu ko'z orqali narsa va hodisalarning yorug'lik ta'sirida turli xil aks etishini hissiy mushohada qilinishidir". Tabiiyki aks (refleksiya)ning turli xil bo'lishini farqlash ko'zning burchi va ularni nisbatan turli (qizil, ko'k) xil nomlash tilning vazifasidir. E'tiborlisi shundaki, narsalarning yorug'likdagi aksini hamma xalqning "ko'zi" bir xil (qizilni qizil) ko'radi, bir xil mushohada qiladi, biroq mazkur rangni turli xil xalqlar turli so'z (turli tovush, turli harf)lar bilan (qizilni – inglizlar *red*, nemislar *rot*, ruslar *красный*, forslar *surx*, arablar *axmar*) turlicha nomlaydi. Binobarin, hissiy a'zolarimiz ichida eng muhimi bo'lgan "ko'z"ning birinchi vazifasi ranglarni farqlash bo'lsa, uni o'zi ham tabiatan "rangli" bo'ladi. Tabiatdagi mavjud ranglarning ayrimlari ko'z qorachig'i atrofida aks etgan bo'lishi mumkin. Shu ma'noda inventarimizda qora ko'z, ko'k ko'z, sariq ko'z, moviy ko'z kabi o'z ma'nosida faol uchraydigan birikmalar qatorida ko'chma ma'no kashf etgan ola ko'z, qizil ko'z, oq ko'z kabi iboralar ham yig'ilgan. Ko'zlarning bu darajada rang-barang bo'lishi muayyan millatlar yoki irqalar bilan ham bog'liq. Yevrpoidlarning ko'zlarini ko'k yoki moviy, mongoloidlarning ko'zlarini asosan qo'ng'ir (qo'y ko'z) yoki negroidlarning ko'zlarini qora bo'lishi bunga yaqqol misoldir. Ko'z rangini xalqlar tomonidan xush ko'rish bobida shuni aytish mumkinki, turk xalqlari qora ko'zni, Yevropa xalqlari esa moviy ko'zni alohida ardoqlaydilar. Endi birikmalardagi ranglarni ko'chma ma'noda uchrashi bobiga to'xtalamiz.

**Qora ko'z:** mazkur birikma avvalo sinekdoxa, qism butunni anglatishi sifatida kelishini ta'kidlash joiz. Bunda "qora ko'z" ostida butun boshli qora ko'zli odamlar tushuniladi. Masalan, *qora ko'z qiz*, *qora ko'z yigit*. Keyinchalik esa birikmaning ko'chma ma'nosi kengayib, "yor"- *Qaro ko'zum*, *kel-u*, *mardumliq emdi fan qilg'il*, "farzand"- *Mani qora ko'z bolam*, "turmush o'rtoq"-*Qora ko'zim bir o'zimni saraladi*, "shogirdlar"- *Yettita aspirantim bor*, *bu qora ko'zlarni muvaffaqiyatli himoyasi avvalo menga*, *qolaversa o'zlariga bog'liq*, "o'quvchi, talaba"- *Ma'ruza xonasida bilimga chanqoq 150 ta qora ko'z professorga muntazir*. Atoqli yozuvchimiz P.Qodirov esa hayotda muayyan zulmga uchragan xalqni ham "Qora

ko‘zlar” deb nomlagan, shu nom ostida roman ham yozgan.<sup>4</sup> Sevimli yozuvchimiz Said Ahmad esa o‘zining “Qorako‘z majnun” kitobida asarda qatnashuvchi personajlardan bo‘lmish it (hayvon) nomini Qorako‘z deb ataydi. Masalaning tadqiqot ishimizga bevosita aloqasini inobatga olgan holda mazkur iboraning P.Qodirov birikma (*qora ko‘z*) sifatida, S.Ahmad esa qo‘shma so‘z (*Qorako‘z*) imlo talaffuzida berganlarini alohida qayd qilish lozim. Zero, “qora ko‘z” bevosita ko‘z qoraligi (ko‘z qoradir) ni anglatga, biz butun ish davomida ta’kidlab kelayotganimizdek, uni so‘z birikmasi, agar ma’no ko‘chib (bahuvrihilarga aylanib), ko‘zga aloqadorligi bilvosita bo‘lib, uning ostida butunlay boshqa narsalar tushnilsa, undan qo‘shma so‘z sifatida foydalanish shart. Shu ma’noda birinchi muallif semantik-sintaktik xatoga yo‘l qo‘ygani kuzatish mumkin.

**2) Hajm:** obyektiv borliqda barcha narsaning hajmi bo‘lganidek, mazkur xususiyatning “ko‘z”ga ham alohida xosligi har qanday e’tirozdan holi. Shu ma’noda inventarimizda ko‘zning hajmi (kattaligi, kichikligi, mittiligi, baloday, tog‘oradayligi, bit kabiligi, enli yoki ensizligi) bilan bog‘liq so‘z birikmalari mavjud. *Katta ko‘z*ning leksik (to‘g‘ri) ma’nosi avvalo narsa va hodisaning me’yorida ortiqligi, yirikligi, ulkanligini bildirsa, ko‘chma ma’noda esa uning kishi diqqatini oshganligi, qiziqishini kuchayganligi, bilish ishtiyoqini ko‘tarilganligi, yoki hayratlanishi (ko‘z quvongani) ni, hayron qolgani (ko‘zi ishonmagani)ni anglatadi. *Kichik ko‘z*ning leksik(to‘g‘ri) ma’nosi uning o‘rtachalikdan *past, quyi, mayda, tor* ekanligini bildirsa, ko‘chma ma’noda uning o‘z funksiyalari (ko‘rish)ni to‘laqonli bajara olmayotganligi tushuniladi. Tabiiyki “ko‘z” o‘z vazifasini kishi (tana) qarisa, muayyan kasalliklarga uchrasa, tashqi tabiiy hodisalardan saqlanmoqchi bo‘lsa tugal bajara olmaydi. *Mitti ko‘z* haddan tashqari kichik, lekin yoqimli bo‘ladi. *Tog‘ora ko‘z, bit ko‘z* birikmalari zamirida o‘xshatish (tashbeh) stilistik vositasi yotadi, ikki bir-biriga bevosita aloqasi bo‘lmagan soha narsa (namoyonda)lari o‘zaro chog‘ishtiriladi. *Tog‘oraday ko‘rinish* beso‘naqayligi, foydalanilish noqulayligi, *bitning* esa parazitligi, hasharot sifatida xush ko‘rilmasligi bois, bu so‘zlar komponent bo‘lib kelgan birikmalar ko‘pincha salbiy, masxara ma’noda tushuniladi. Muloqotda uncha faol bo‘lmagan, biroq o‘ziga

<sup>4</sup>P.Qodirov “Qora ko‘zlar”. Toshkent-2019, Yangi Asr Avlodi nashriyoti, 352-bet

yarasha ma'no bilan ishlatiladigan *enli ko'z*, *ensiz ko'z* birikmalari ham borki, unda *enning* leksik (narsa va hodisalarning ko'ndalang kengligi) ma'nosi o'z xususiyatini yo'qotadi. Zero, ko'zning enli yoki ensizligi gorizonta emas, balki vertikal (tik, osma) baholaniladi. Chunki ko'z ko'ndalang kengaya olmaydi, tikkasi (qovoqning ochilib-yopilishi hisobiga)ga enli, ensiz deb sifatlanishi mumkin.

**3) Shakl:** Shakl obyektiv borliqni his qilishimizdagi eng muhim omillardan biridir. Zero, dunyoni anglashda ko'zimiz birinchi navbatda narsa va hodisaning shakli (ko'rinishi)ga tushadi. U muayyan ma'noda mazmunning ifodalanish sur'atidir. Darvoqe, shakl va mazmun narsa va hodisaga mute. Yoxud narsa bo'lmasa shakl bo'lmaydi, shaklsiz mazmun ham yo'q. Binobarin, har qanday tahlil uchun 3 asos:

a) *narsa va hodisa*;

b) *shakl va mazmun*;

d) *fikr va amalga* tayanib ish tutilsa ko'zlangan maqsadga erishish oson kechadi. Shu ma'noda tadqiqotimizning obyektlaridan biri hisoblanib kelayotgan "ko'z"ning shakli haqida fikr bildirilmoqchi bo'linsa, biz uning birikmalarda hokim komponent sifatida qo'llanilayotgan *go'zal ko'z*, *chiroyli ko'z*, *xunuk ko'z*, *xushro'y ko'z*, *badro'y ko'z*, *tik ko'z*, *egik ko'z*, *qiya ko'z*, *qiytiq ko'z*, *qiyshiq ko'z*, *g'ilay ko'z*, *dumaloq ko'z*, *charos ko'z*, *munchoq ko'z* kabi aytilish va yozilish tariqasida uchradi. Endi misollarning semantik tahliliga o'tamiz. "Go'zal ko'z" birikmasi tarkibida aniqlovchi (tobe)lik vazifasini o'tab kelayotgan "go'zal" komponenti lug'atlarimizda *eng chiroyli*, *husndor*, *kishi ko'zini quvontiradigan*, *kishini maftun etadigan*, *zavqlantiradigan* deb izohlanilgan. *Go'zal* sifatlovchisining unga ma'nodosh bo'lgan *chiroyli*, *husndor*, *xushro'y* so'zlardan farqi, uning ma'nosida *eng* orttirma darajalik yuklamasi bor yoxud "go'zal", *eng chiroyli*, *eng husndor*, *eng xushro'y* ma'nosida tushunilishidir. Muloqotda narsa va hodisaning shaklini ta'riflash bevosita bo'lsa, tabiiy ravishda *eng* (orttirma daraja) yuklamasini qo'llashga hojat yo'q ya'ni yakka narsalar uchun *go'zal*, *chiroyli*, *xushro'y* deb sifatlarning sodda darajasidan foydalanishni o'zi kifoya. Ta'kidlamog'chimizki, narsa va hodisalar ko'rinishini yaxshi (*go'zal*) yoki yomon (*xunuk*) deb nomlash birinchi navbatda

bevosita oddiy daraja bilan, galdagi navbatlarda esa narsa va hodisalarga berilayotgan baho haqiqatmi (*ko‘rinib turibdimi*) yoki xayol (*ruhanmi*) bilvosita (qiyos asosida)kechadi va sifat (-lovchi)lar qiyosiy(-roq) yoki orttirma (eng) daraja yuklamalarini oladi va muloqot o‘zaro tushunarli kechadi, morfologik, semantik va stilistik jihatlardan to‘g‘ri bo‘ladi. Shu ma’noda *go‘zal ko‘z* so‘z birikmasi milliy tilimizda juda faol qo‘llanilmasa-da, so‘zlarda shakl o‘zgarishi nuqtayi nazaridan *go‘zal ko‘z*, *go‘zalroq ko‘z*, eng *go‘zal ko‘z* iboralarini qo‘llash malollik qilmaydi.

**4)Holat:** Ko‘z holati bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z birikmalarining semantik tahlilidan oldin avvalo “holat” so‘zining leksik ma’nolariga to‘xtalamiz. Dastlabki bir qarashdayoq uning ma’nolari xayolan umum tushunarli bo‘ladi. Uning og‘zaki yoki ta’riflashda esa kishi qiynaladi. Chunonchi, suhbatdoshingizdan “holat“ deganda nimani tushunasiz deb so‘rab ko‘ring, suhbatdosh o‘ylanib qoladi, tushunchasini aniq ta’riflab bera olmaydi. Hatto butun boshli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ham bu so‘zni izohlashda aniq bir sharh ayta olmagan, uning ma’nosi turli xil, variantdosh so‘zlar bilan izohlanishga harakat qilinib, narsa narsaday (holat holatday) nomlanilmagan. ”Holat” izohi *hol*, *ahvol*, “hol” esa *holat*, *ahvol*, “ahvol” esa *holat*,*hol* bilan sharhlanilgan. Natijada oddiy o‘quvchi bu 3 leksemaning ma’nosi bir narsa ekan, qiziqqan o‘quvchi esa, “nahotki 3 leksema aynan bir narsa yoki hodisani bildirsa?”, deb ikkilanadi, shubhasiga aynan shu lug‘atda javob topa olmaydi. Fikrimiz ko‘rgazmali bo‘lishi uchun lug‘atda berilgan (holat, hol, ahvol leksemalari) izohlar(i)ni aynan keltiramiz:

**Holat** (*arabcha-hol*, *ahvol*, *tuzilish*)

1) *Yuzaga kelgan, mavjud bo‘lgan vaziyat, ahvol.*

2) *Jismoniy yoki ruhiy jihatdan bo‘lgan ifoda, ko‘rinish, qiyofa, avzo.*

3) *Kuch-quvvat, darmon, mador, qudrat.*

**Hol:**(*arabcha-holat*, *ravish*)

1) *Hayotdagi muayyan bir holat, vaziyat, ahvol.*

2) *Kimsa yoki narsa jismlari yuzaga kelgan muayyan holat.*

3) *Kishining jismoniy va ruhiy jihatdan o‘zini sezishi, jismoniy va ruhiy holat, kayfiyat, avzo, ko‘rinish.*

4) –*holda. Holat bildiruvchi (g'amgin, ma'yus kabi) so'zlar;*

5) *Ba'zi so'zlar bilan qo'llanilib, ruhiy yoki jismoniy imkoniyat, kuch-quvvat ma'nosini bildiradi.*

6) *Ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilish sababi, maqsadi, o'rni, payti va belgilarini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lak.*

**Ahvol:** (arabcha-holatlar)

1) *Muayyan vaqt va sharoitdagi holat, vaziyat.*

2) *Turmush va ish faoliyatidagi holat, hol-ahvol.*

3) *Jismoniy, ruhiy holat.*

4) *Tashqi ko'rinish holati, qiyofa (odatda yomon, yoqimsiz holatga nisbatan)*

Endi “holat” so'zi haqida lug'atda qilingan etimologik qaydlar va semantik izohlarni tan olgan holda, mavzuga yanada oydinlik kiritish maqsadida ayrim fikr-mulohazalarni bildiramiz. Aslida “holat” o'zlashmasining o'zagi arabcha *ha(v)ala* fe'li bilan bog'liq bo'lib, undan o'zbek tilimizda *ot (hol)*, uning ko'pligi (*ahvol*) va masdari (*holat*) kabi til birliklari yasalgan.

“Holat” so'zi ma'nosiga mantiqan qaraladigan va lo'nda aytiladigan bo'lsa, “*holat*” *narsa va hodisalarning tebranmay, qimirlamay turgan vaqtidir.* Nainki, narsa va hodisalar sal bo'lsa-da tebranishsa yoki qimirlashishsa, holat “harakat”ga aylanadi. Bizningcha “holat” nima ekanligini bilish uchun shu ta'rif yetarlidir. Uni lug'atda berilgan *vaziyat, ahvol, jismoniy yoki ruhiy jihatdan bo'lgan ifoda, ko'rinish, qiyofa, avzo, kuch-quvvat, darmon, mador, qudrat* kabi ma'nodosh (sinonim) so'zlar bilan izohlash so'z (holat)ning ma'no-mohiyatidan qochishdir. Binobarin, ular to'liq variantdor so'zlar emas, kishi mushohadasida muayyan yanglishlarga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, ism va jism monandligini zohiran anglab bo'lmaydi.

Masalaga falsafiy nuqtayi nazardan qaraladigan bo'linsa, obyektiv borliqdagi barcha narsa (neytron-protonlardan tortib to quyoshgacha) harakatdadir. “Holat” doimo nisbiy tushunilishi kerak. Narsa holatini payqash, tasavvur qilish vaqt (ko'z tushgan zum) bilan bog'liq, nazarning holat va harakatga nisbatan mezonini fotoapparatda olingan tasvir uchun ketgan (chirq) soniyaning bir bo'lagi va uning natijasida chiqqan sur'atdagi ko'rinish bilan dalillash mumkin.

Tadqiqotimizda aynan shu tajallilini ko‘zning “holat”i uchun ham (nisbatan) me’yor sifatida olamiz va semantik tahlil etishga harakat qilamiz. Inventarimizda quyidagi so‘z birikmalari bor: *nam (namli) ko‘z, quruq ko‘z, ochiq ko‘z, yopiq ko‘z, berk ko‘z, yumuq ko‘z, yarimochiq ko‘z, yarimyopiq ko‘z, yarimyumuq ko‘z, chalaochiq ko‘z, chalayopiq ko‘z, chalayumuq ko‘z, to‘laochiq ko‘z, to‘layopiq ko‘z, to‘layumuq ko‘z, qipiq ko‘z, sog‘ ko‘z, sog‘lom ko‘z, kasal ko‘z, qon ko‘z, bedor ko‘z, g‘amgin ko‘z, shodon ko‘z, xumor ko‘z, moyil ko‘z, oshiq ko‘z, xira ko‘z, yaltiroq ko‘z, ko‘r ko‘z, tund ko‘z, chaqan ko‘z, qo‘rqoq ko‘z, botir ko‘z, qattiq ko‘z, mast ko‘z, nochor ko‘z, olov ko‘z, o‘chik ko‘z, nashtar ko‘z*. Ro‘yxatdagi birinchi juftlik (*nam ko‘z, quruq ko‘z*)ni semantik tahlilga tortamiz. Barchaga a’yon, ko‘z normal (*sog‘lom*) holatda muayyan darajada namli bo‘ladi. Shu namlik bo‘lmasa u erkin va maqsadga muvofiq harakat qila olmaydi. Nam orqali ko‘z “moylanib” turadi. Namli ko‘z “iborasi” ostida esa ko‘zdagi namning yoshga aylanishi tushuniladi va bu hodisa odatda ko‘z egasi yig‘lasa (yoki quvonsa) sodir bo‘ladi. “Quruq ko‘z” iborasi esa kerak joyida na yig‘lab va na quvonib biladigan, ko‘rib hislaniladigan narsalarga, jismonan va ruhan o‘ta loqayd qaraydigan va badnafs odamlarga nisbatan aytiladi. Masalan, *musibatda hamma yig‘ladi, faqat men “quruq ko‘z” edim*. Tibbiyotda *quruq ko‘z sindromi*<sup>5</sup> kasalligi ham bor. Bunda tana ko‘zni yetarli namlay olmaydi va ko‘z ham o‘zining erkin ko‘rish vazifasini bajarmaydi. Bundan tashqari xalqimiz irimlariga ko‘ra “quruq ko‘z”- ko‘zi tegadigan odamlar inobatida ham tushuniladi. Barcha narsaga (o‘zida yo‘qligi sababli) hasad bilan qaraydigan “ko‘zi qattiq” larga nisbatan aytiladi. Darhaqiqat, biror narsa va hodisa qadardan oshgan bo‘lsa, unga sehr nigohi bilan qarab, yovuzlik (kasallik yoki halok qilish) istagi nazari bilan qaraydigan odamlar quruq ko‘z (nafsan och kishi), qattiq ko‘z (kuchli hasad, jodu egasi) deb nomlaniladi. Mazkur fikrlarimiz davomida yana bir narsani ta’kidlash joizki, u ham bo‘lsa ko‘zning o‘z funksiyalarini to‘la bajara olishi jarayonida “qovoq” ning ham muhim hissasi borligidir. Ma’lumki, qovoq ko‘z kosasining yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga ochilib yopilib turadigan teri bo‘lib, ehtiyojiga nisbatan kerak vaqtda ochilib turmasa, yumuq bo‘lsa, barcha ko‘zli mavjudot hech

<sup>5</sup> <https://kun.uz/news/2020/08/11/quruq-kozlar-sindromi>

narsani ko‘ra olmaydi. Qovoqsiz jonzoqlar, masalan baliqlar bundan mustasnodirlar. Odam uxlasa yoki narsa va hodisalarni ruhan (xayolan) o‘ylasa ko‘zi tabiatan yumiladi. Bunday paytlarda tevarak-atrofnı ko‘rishga hojat qolmaydi. Ba’zi bir kasalliklar sababli ko‘z yumulib qolishi mumkin, bu boshqa narsa bo‘lib, u me’yordagi sog‘lom turmush tarzini ifoda qilmaydi. *Chalayopiq, chalayumuq, yarimochiq, yarimyumuq ko‘zlar* ko‘zning ko‘rish qobiliyatini inkor qilmaydilar, faqat susaytirishlari mumkin. “Qiyiq ko‘z”(-li)larning esa ko‘rish qobiliyati kuchli bo‘ladi, binobarin odamning ko‘rishga qiynalayotgan ochiq ko‘zlari qovoqlarning torroq yopilishi bilan narsa va hodisani ma’lum darajada aniqroq ko‘rishi mumkin. Bu holatlar kundalik hayotda ko‘plab uchrab turadi.

**5) Harakat:** Ma’lumki, ko‘z bir *holat*da (qotib) turadigan insonning hissiy a’zosi emas. U nazar tushadigan va nigoh tashlanadigan narsa va hodisalarning inson tanasiga nisbatan joylashuviga qarab harakatlanadi. Zero, odam tana holatini o‘zgartirmay, tek turgan holda ham yon-atrof (o‘ng, chap)lari yoki gavdasiga nisbatan yuqorida va pastda (faqat orqada emas) turgan narsalarni ko‘zini harakatlantirib payqashi mumkin. Buni tegishli (fizika, anatomiya) fanlarida akkomodatsiya [lot. *Accomatio* - moslashuv] ko‘zning turli masofadagi narsalarni aniq ko‘rishga moslashuv<sup>6</sup> deb aytiladi. Endi ko‘z harakati bilan bog‘liq birikmalar tahlili oldidan shuni aytish lozimki, birikmalardagi hokim so‘z “ko‘z” ni “harakat” nuqtayi nazaridan aniqlab kelayotgan tobe so‘zlar, biz yuqorida qilgan tavsif va tasniflardagi kabi sifat so‘z turkumlariga xos til birliklari emas. Nainki, sifat so‘z turkumi harakat belgisi vazifasini o‘ta olmaydi, “harakat”- fe’l so‘z turkumining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bizning *ko‘z harakati* bilan bog‘liq deb tahlil qilayotgan misollarimizning aksariyati “sifatdoshlar”dir, yoxud hokim so‘z “ko‘zning belgisi” fe’llarning sifatdosh shakllaridir. Binobarin, mazkur birikmalarda harakat nisbiy tushuniladi, ko‘zning harakati tugallanib, uning bir zumlik (soniyalik) ko‘rinish shakli inobatga olinadi, ko‘zga tushgan bir daqiqalik nazar xulosasiga ko‘ra ko‘zga shaklan baho beriladi. Masalan, *chaqchaygan ko‘z, baqraygan ko‘z, to’sraygan ko‘z, qiyshaygan ko‘z, jikkaygan ko‘z, tikkaygan ko‘z*. Misollardan

<sup>6</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent 2020, 1-jild, 62-b.

anglashilayotgan ma'no (darak, ma'lumot) ga chuqurroq yondashilsa, tobe so'zlar ostida muayyan harakat (nomlari) *chaqchayish, baqrayish, to'srayish, qiyshayish, jikkayish, tikkayish* yotganini ko'ramiz. Zero, ko'zlar bu ko'rinishni olguncha muayyan harakat jarayonini boshdan kechirishlari kerak. Aytmoqchimizki, ko'zlar o'zining tabiiy normal shaklidan *chaqchayish, baqrayish, to'srayish, qiyshayish, jikkayish, tikkayish* darajalari tomon harakatlanishi va chegara to'xtamiga kelgan bo'lishi kerak. So'z birikmalari orqali anglashilayotgan baho ham aynan shu harakatga, yoki to'xtamga qarab berilgan bo'ladi. Mazkur guruhga yana *o'ynoqi ko'z, shilqim ko'z, suyuq ko'z, buzuq ko'z, nozli ko'z, nozsiz ko'z, iboli ko'z, ibosiz ko'z, xayoli ko'z, hayosiz ko'z, jilvali ko'z, jilvasiz ko'z, uyatchan ko'z, uyatsiz ko'z, andishali ko'z, andishasiz ko'z* kabi misollarni keltirish mumkin. Qizig'i shundaki, bu birikmalarda harakat davomiyligi (*ko'zning o'ynayotgani, suyulayotgani, noz ifodalayotgani, ibo ko'rsatayotgani, hayo qilayotgani*) nisbatan faol qiliqlar bilan uzviy tushuniladi. Ko'z harakatlari berayotgan ma'no, albatta, suhbatdoshlar ruhiyati va muloqot kayfiyati bilan bog'liq. Mazkur so'z birikmalarini insonlararo gender (jinsan) tenglik nuqtayi nazaridan ham tahlil qilishni joiz deb bilamiz. Chunki har qanday tilning lug'at tarkibidagi so'zlar uslub jihatidan jins (erkak va ayol)lararo ham farqlanishlariga tilshunoslikda xayrixoh qaraladi. Shu ma'noda *suyuq ko'z, nozli ko'z, iboli ko'z, jilvali ko'z* birikmalari nisbatan ayol (qiz, juvon)larga qarata, *shilqim, buzuq, uyatsiz ko'zlar* erkaklarga nisbatan va *o'ynoqi, xayoli, andishali ko'zlar* erkak-u ayol bari insonlarga nisbatan qo'llanilishi kundalik muloqotda kuzatiladi.

Ko'z harakati bobida yig'ilgan misollar ichida "o'g'ri ko'z" so'z birikmasi ham borki, u orqali avvalo kishi nazarining tinimsiz harakatdaligiga, nigohining tez-tez kishi o'zi qiziqqan narsalarga pinhona ko'chib turishini bildirsa, keyinchalik ko'z egasini hayvoniy nafsini, ko'zi tushgan narsalarni o'ziniki bo'lishi kabi hufyona istaklari aksini ham namoyon qilib turadi. Mazkur birikmaning qo'llanilishi so'zlashuv tilimizda faol bo'lsada, u izohli lug'atlarimizda aynan qayd qilinmagan, biroq unga ma'nodosh, variantdoshlik qilishi mumkin bo'lgan birikma sifatida "o'g'ri

qarash” leksemasi (sezdirmay, pinhona qarash, o‘g‘rilar kabi nazar tashlash<sup>7</sup>) misol sifatida olish mumkin.

**6) Quvvat:** ko‘z quvvatining nima ekanligini sodda ifodalamoqchi bo‘lsak, uni ko‘zning ko‘rish kuchi deb izohlash mumkin. Shuning bilan masala ravshan sharhlanilganday bo‘ladi. Endi o‘z navbatida ko‘z kuchi nima deganda, u ko‘zning ko‘rish quvvati deb sharhlasak, bu masala ham oydinlashganday bo‘ladi. Qilgan ishimiz esa juda jo‘n kechib, kuchni quvvat, quvvatni esa kuch deb ma’nodosh so‘zlar bilan (gapdagi o‘rinlarini almashtirib) qo‘llab, idrok qilingan narsani mushohadasini bayon qilganimizdir, xolos. Nainki, ta’riflar sodda va aniq chiqqanday bo‘lsa-da, ularda ko‘z kuchi nima, yoki quvvati nima degan savollarga aynan javob yo‘q. Mazkur savollarga javob berishda butun boshli lug‘atlar va qomuslar ham aniq sharh berishda qiynalishgan. Ulardagi *quvvat* uchun qayd qilingan 8, kuch uchun esa 13 ta izoh ham ancha mujmal qilingan. *Kuch* va *quvvat*ning tabiati va mohiyati qoniqarli ochib berilmagan. Bizning fikrimizcha, tabiatan *kuch*ning turk, *quvvat*ning esa arab tili mahsuli, o‘zlashma so‘z ekanligini, mohiyatan (ma’no jihatdan) esa *kuch*da tananing biror narsaga “qodir”lik, *quvvat*da esa tananing biror narsaga “qobil”lik darajasi idrok qilinishini inobatda bo‘lishini ta’kidlash lozim. Milliy tilimiz bu til birliklaridan sinonimik xususiyatga ega bo‘lgan juft so‘z (*kuch-quvvat*) ni ham yasab ulgurgan. Shu ma’noda kuchli ko‘z (ko‘zi kuchli), quvvatli ko‘z (ko‘zi quvvatli) deganda, inson ko‘zining o‘z funksiyalarini bajarishga qodirlik va qobillik darajasini ijobiy jihatdan barqaror va bardavom ekanligini nazdda tutishi tushuniladi. Inventarimizda yig‘ilgan *kuchli ko‘z*, *kuchsiz ko‘z*, *quvvatli ko‘z*, *quvvatsiz ko‘z*, *zo‘r ko‘z*, *chala ko‘z*, *ojiz ko‘z*, *jonli ko‘z*, *jonsiz ko‘z*, *o‘tkir ko‘z*, *o‘tmas ko‘z*, *jodu ko‘z*, *sehrli ko‘z*, *nurli ko‘z*, *nursiz ko‘z*, *sodda ko‘z*, *shum ko‘z*, *ayyor ko‘z*, *shayton ko‘z*, *makkor ko‘z*, *qotil ko‘z*, *jo‘shqin ko‘z*, *so‘lg‘in ko‘z* kabi birikmalarni muloqotda (kontekstda) kashf qilib kelayotgan ma’nolariga qarab ijobiy - salbiy, bo‘lishli - bo‘lishsiz, ma’qul- noma’qul ma’nolarda tahlil qilish (qo‘llash) mumkin.

**7) O‘xshatish:** Ma’lumki, ko‘zning o‘zga maxluqotlarda ham bo‘lishi tabiiy ravishda “ko‘z”larni mavjudotlararo taqqoslash, solishtirish, chog‘ishtirish,

<sup>7</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent 2020, 5-jild, 195-b.

o‘xshatish yoki qiyoslashni, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, taqozo qilishi tabiiy. Mazkur jarayonda, albatta, inson tajribasi katta rol o‘ynaydi, zero biror “ko‘z”ni ikkinchi bir n(im)arsa ko‘ziga o‘xshatish uchun uni odam oldindan ko‘rgan, u bilan ish (jodu ko‘z) tutgan, unga havas (ohu ko‘z) qilgan yoki undan nafratlangan (ilon ko‘z) bo‘lishi kerak. Fikrimiz bayoni davomida yana shu narsani aytib o‘tishni joiz deb o‘ylaymizki, o‘xshatish deganda gap mantiqan bir narsaning o‘ziga xos, alohida tomonlarini ikkinchi bir narsada his (ko‘rib, eshitib, hidlab, ta‘mini bilib yoki tana orqali sezib yoki ruhan anglab) qilib biron bir farqini topa olmasak, ular o‘xshar ekanlar deymiz - o‘xshatamiz. Mabodo narsa va hodisalararo sezilarli, katta farqlar topilsa, ular o‘xshamas ekan degan fikrga kelamiz, nainki o‘xshatishga tabiiy ravishda hojat ham bo‘lmaydi. Mulohazamizni yana oydinlashtiramiz, bilamizki, “o‘xshatmoq” va “o‘xshamoq” fe’llari o‘zagi “o‘xsha” bir bo‘lib, o‘zaro farqlari esa valentliklari bilan farq qiladilar. Chunonchi, kim, nima? – kimga, nimaga? *Bola otaga o‘xshaydi*. Ko‘rinib turibdiki, fe’l bir valentli va u jo‘nalish kelishigini talab qiladi. “O‘xshatmoq” esa kim, nima? - kimni, nimani? - kimga, nimaga? *Bola o‘zini otasiga o‘xshatadi*, fe’l ikki valentli va u avvalo tushum kelishigini, keyin esa jo‘nalish kelishigini boshqarib keladi. Endi mazkur fe’llarni ma’no jihatdan izohlashga harakat qilamiz va dastavval “o‘xshamoq” fe’lining sharhlarini izohli lug‘atimizdan izlab ko‘ramiz, izohlarni aynan keltiramiz:

1. Xususiyat, hislat, tuzilish va b. belgisi bilan bir xillikka (o‘xshashlikka) ega bo‘lmoq; o‘xshash bo‘lmoq. *Bola otasiga o‘xshaydi. Bu suyuqlik moyga o‘xshaydi.*

*Ular bir-biriga o‘xshamaydi. Mol egasiga o‘xshamasa, harom o‘ladi. Maqol. Chirchiq bo‘yi qishloqlaridagi uylar bir-biriga o‘xshaydi. H. G‘ulom, Mash‘al. ..domla sochlarini bo‘yatibdilar!... Azbaroyi xudo, kuya tushgan po‘stakka o‘xshaydi. A. Qahhor, To‘yda aza.*

2. J.k. shaklidagi so‘z bilan shu so‘z anglatgan narsa haqidagi taxminni, taxminiy tasavvurni bildiradi; bo‘lib ko‘rinmoq, *Ahvolichatoqqa o‘xshaydi. Yur bir aylanib kelamiz, zerikkanga o‘xshaysan. Bugun kun qattiq isiydiganga o‘xshaydi. Gapiga qaraganda, xursandga o‘xshaydi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

3. s. t. Ko‘ngildagidek bo‘lmoq. *Ish uncha o‘xshamadi. Osh juda o‘xshabdi.*

4. (rvdsh. sfdsh. har. n. shaklida – o‘xshab, o‘xshagan, o‘xshash) ko‘m.vzf. Qiyos, o‘xshatish munosabatlarini ifodalaydi; kabi, singari. *Podadan qochgan buzoqqa o‘xshab, dush kelgan eshikka boshingni tiqaverasanmi?! Oybek, Tanlangan asarlar. Yaqinroq borib qarasa, uning boshi qiyshaygan, chekkasidan uvadaga o‘xshagan bir narsa chiqib turibdi. A. Qahhor. Oltin yulduz. Erlar sevingandan kulsalar, sizga o‘xshash qizlar yig‘laydilar. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.*<sup>8</sup>

Yuqoridagi sharhlar bilan astoydil tanishar ekansiz, “o‘xshamoq” fe’lining ma’nosini anglatish uchun qayd qilingan izohlar muayyan darajada qusurlidirlar. Chunonchi, “o‘xshamoq” fe’li ta’rifini xususiyat, hislat, tuzilish va b. belgisi bilan bir xillikka (o‘xshashlikka) ega bo‘lmoq, o‘xshash bo‘lmoq deyish bilan fe’lning asl ma’nosi ochilmaydi. Zero, obyektiv borliqda mutlaq bir xillikka ega bo‘lish yo‘q, demak izoh e’tirozlidir. Endi “o‘xshamoq” ni o‘xshash bo‘lmoq deyish ta’kid (ikki marta aytish) dan o‘zga narsa emas. Yuqoridagi ta’riflarga berilgan misollar ham “o‘xshamoq” ni qanday hodisa ekanligini ayta olmayapti, aksiga olib mazkur fe’l anglatayotgan asl ma’noni “farqni sezmaslik” (Ota bilan bola umuman olganda bir xil, farqsiz *bo‘lmaydi*), “gumon” (*Suyuqlik moyga o‘xshaydi*), “inkor” (*Ular bir-biriga o‘xshamaydi*) va “mazax” (*..domla sochlarini bo‘yatibdilar!...Azbaroyi xudo, kuya tushgan po‘stakka o‘xshaydi*) kabi gaplar bilan tasdiqlash, qiziquvchi fikrini chalg‘itsa chalg‘itadi, lekin fe’l ma’nosini ravshanlashtirishga yordam bermaydi.

Mazkur fe’l ma’nosi uchun berilgan navbatdagi izohlarda uning jo‘nalish kelishigini boshqarib kelib *taxmin, taxminiy tasavvur* anglatishi yoki biror narsa va hodisaning *ko‘ngildagidek bo‘lishi* yoki uning (rvdsh. sfdsh. har. n. shaklida – o‘xshab, o‘xshagan, o‘xshash) ko‘m. vzf. Qiyos, o‘xshatish munosabatlarini ifodalaydi; kabi, singari deb ta’riflanishi tanqidiy qiziquvchida mantiqiy e’tiroz, murosasiz izlovchida esa (ta’rifga) rozi bo‘lish, kelishuvchanlik hissini uyg‘otadi. Tanqidchi rozi bo‘lmaydi, murosasiz esa ta’rifni ijobiy tushunishga harakat qiladi, juda bo‘lmaganda, “Demak, bu fe’lning shunaqangi ma’nolari ham bor ekanda!” deb o‘zicha xulosa qilib qo‘yadi. Ta’rif va misollar berayotgan darakni ma’qul, hamohangroq qiladi. “O‘xshamoq” fe’li uchun izohli lug‘atimizda berilgan

<sup>8</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent 2020, 5-jild, 184-b.

sharhlarga ilmiy-amaliy (tanqidiy) yondashish bilan bir qatorda mazkur fe'ning semantik ma'nosi borasida shaxsiy fikrlarni bildirishni joiz deb o'ylaymiz. Bizningcha "o'xshamoq" degani – "Bir narsa va hodisaga xos xususiyatlar ikkinchi bir narsa va hodisalarda **bir qarashda farqi sezilmay** his (ko'rish, eshitish, ta'm, hid, ruhan) qilinishidir" deb izohlamok kerak. Aslida obyektiv borliqda (mutlaq) o'xshash va o'zaro farqsiz narsa va hodisa yo'q. "Bir xil" narsani esa Alloh Taolo umuman yaratmagan. Lekin insoniyat hamma narsa va hodisani "bir qarash" bilan baholamoqchi bo'ladi, chuqurroq tahlil uchun hissiy a'zolari va ongi ojizlik qiladi, boz ustiga tanamiz ham yalqov va shoshqaloq, natijada umumiy xulosa, fikr, tasdiq, hukmda mohiyatan yanglishiladi. Masalan, bashariyat nazdida hamma insonlarning (ko'rsatkich) barmoqlari tabiatan va mohiyatan bir xil va o'xshash deb mushohada qilinadi, lekin chuqur (bir qarash emas) ilmiy tahlil 7 milliarddan oshiq ko'rsatkich barmoqning izi *bir xil* yoki *o'xshash* emas, balki ko'rsatkich barmoq jihatidan 7 milliarddan oshiq xil va ularning 7 milliarddan ortiq farqi bor ekanligini nazariy tasdiqlagan va xalq esa bu fakti amalda tan olgan. Analog misol sifatida bir tuxum hujayralarida bunyodga kelgan egizaklarni oddiy odamlar *bir qarashda* farqlay olmaydi, ularning *bir xil* ko'rinishidan va jismlarning o'ta o'xshashligidan hayratlanadilar, Hasanni Husandan farqlay olmaydilar. Ularni dunyoga keltirgan onasi esa hech qachon yanglishmaydi, farqlarini botinan ham, zohiran ham aniq his qiladi, sezib turadi. Demak, "o'xshamoq" fe'li orqali atalayotgan va ko'rsatilayotgan holat va harakatni eng kamida shartli va ko'chma ma'noda tushunish kerak bo'ladi.

Shu ma'noda odam "ko'z" ining boshqa mavjudot va maxluqotlar ko'ziga "o'xshash" ekanligi va shunga asosan ularni o'xshatish mumkinligi bobida tilimizda yaralgan va inventarimizda yig'ilgan so'z birikmalarini quyidagicha tasniflash va tavsiflashga harakat qilamiz:

a) yovvoyi, yirtqich hayvonlar (*tulki ko'z, bo'ri ko'z, shaqal ko'z, qoplon ko'z, ayiq ko'z, yo'lbars ko'z, arslon ko'z*)

b) yovvoyi, o'txo'r hayvonlar (*kiyik ko'z, ohu ko'z, jayron ko'z*);

d) uy (xonaki) hayvonlari (*qo'y ko'z, bo'ta ko'z, mushuk ko'z*);

e) yovvoyi, yirtqich qushlar (*burgut ko'z, lochin ko'z, qirg'iy ko'z, boyo'g'li*

ko'z);

f) mahalliy qushlar (*chumchuq ko'z, hakka ko'z, musicha ko'z, ko'rshapalak ko'z, secha ko'z (shevada)*);

g) kemiruvchilar (*sichqon ko'z*);

h) sudralib yuruvchilar (*ilon ko'z, kaltakesak ko'z, echkiemar ko'z, xameleon ko'z*);

i) hashoratlilar (*bit ko'z, ninachi ko'z, chayon ko'z, pashsha ko'z, chivin ko'z*);

j) suv hayvonlari (*baqa ko'z, qurbaqa ko'z, toshbaqa ko'z*).

Keltirilgan misollar va ular bo'yicha qilingan tasniflarning ma'nani tahlili shuni ko'rsatadiki, hayvonlar (parranda va darranda) ko'zlarining inson ko'zlariga o'xshab ketishlarini ma'qul (ohu ko'z) ko'rib, tan olib, ta'kidlanish orqali tasdiqlab, ayrim "ijobiy" xususiyatga ega bo'lgan "ko'zli" larni rag'batlantirib, ba'zi "salbiy" ko'ringan "ko'zli" lardan esa (ilon ko'z) nafratlanib, nazdda tutilgan shaxslarning yomon hayvonlarga xos nigohlariga ishora qilinadi. Shu ma'noda fikrimizni yanada kengroq bildirmoqchi bo'lsak, yuqoridagi so'z birikmalari orqali inson ko'zlarining katta-kichikligi (*baqa ko'z-bit ko'z*), qobiliyati (*qirg'iy ko'z*), aqli (*boyog'li ko'z-mo'la ko'z*), yorug'lik bilan bog'liq (*ko'rshapalak ko'z- tovuq ko'z*), jangari (*qoplon ko'z*), qo'rqqoq (*quyon ko'z*), botir (*arslon ko'z*), shum (*tulki ko'z*), yuvosh (*musicha ko'z*), sodda (*qo'y ko'z*), ko'rish hadlari cheksizligi (*pashsha ko'z*), yo'nalish chegarasi cheklanmagan (*xameleon ko'z*) ligi borasida narsa va hodisalararo nom va ma'no ko'chishi hodisalarini kuzatish mumkin.

**8) Son va miqdor:** *bir ko'z, ikki ko'z, to'rt ko'z, yakka ko'z, juft ko'z, qo'sh ko'z*. Tirik mavjudotlarda ko'zlarning son jihatdan "ikki" bo'lishi, ularni miqdor nuqtayi nazaridan qayd qilsak, "juft" yoki "qo'sh (-a)" deb belgilanishi tabiiy, shu jihatdan tushunarli holdir. Nainki, "bir ko'zli" yoki ikkidandan ortiq ko'rish hissiy a'zosiga ega bo'lgan maxluqotlar faqat ertak, afsona, mif va dostonlarda bor. Biz ularni xayolan tasavvur qilamiz yoki muayyan sur'atlar, filmlar, videotasvirlarda simbolik va allegorik ko'chimlar orqali mushohada qilmoqchi bo'lamiz. Odam favqulodda hodisa (ofat, falokat, urush, suiqaqd)lar orqali shikastlanib, "bir ko'z"li bo'lib qolishlari mumkin. Lekin u sun'iy "uchinchi" yoki "to'rtinchi" ko'zni

istamaydi, tanasida ularga mos joyni topib ham bilmaydi. Faqat ko‘chma ma’noda tevarak-atrofidan doimo ogoh, bo‘lib turgan voqeliklarni o‘z vaqtida his qiladigan odamlarga “uni orqasida ko‘zi bor” deb aytiladi, lekin o‘rni “ensa”sida tasavvur qilinadi. Bunga chop qilingan yoki nashrdan chiqqan ayrim ertak va fantastik adabiyotlardagi rasmlar guvohlik qilishi mumkin, jumladan: Homer asarlaridagi eskulap (циклоп)lar, Ted Eliot, Terri Rossio kabi yozuvchilarning “Qarib dengiz qaroqchilari” asarlarining bir ko‘zli qahramonlari yoki Konan Doylning “Sherlok Holms sarguzashtlari” asaridagi “to‘rt ko‘z”li itlarni majozan misol sifatida keltirish mumkin.

Endi “juft ko‘z” va “qo‘sha ko‘z” so‘z birikmalari bir qarashda ma’nodosh (“Alloh Taolo odamga juftdan ko‘z, quloq, qo‘l, oyoq, buyrak, o‘pka bergan” degan gapda “qo‘sha” so‘zini qo‘llasa bo‘ladi) ko‘rinsalar-da, ayrim holatlarda ularning o‘zaro ma’no farqlarini kuzatsa bo‘ladi. “Juft” so‘zi ikki narsa-hodisaning yonma-yon bo‘lishini anglatadi: *Nuh Payg‘ambar kemasiga barcha mavjudot va maxluqotlar bir juftdan olindi*. Qo‘sh(-a) so‘zi narsa va hodisalarning uzviy, ketma-ketligini anglatadi. Masalan, *To‘y va aza, tug‘ilish va qazo ko‘pincha qo‘sha (biri ketidan ikkinchisi, ketma-ket) kelishadi*.

“Ko‘z” so‘zi bilan bog‘liq so‘z birikmalarining kuantitative va kvalitativ tahlili borasida xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ularning soni oz emas. Qo‘llanilish sifati mavzusida shuni ta’kidlasa bo‘ladiki, inventarda yig‘ilgan so‘z birikmalarining og‘zaki, yozma muloqotda o‘rni katta, zero har qanday tabiiy suhbatda ko‘z-ko‘zga tushib turadi (*telefon, internet, Imo, What’s app, telegram, videogram, Instagram, twitter, feys buklar orqali suhbatlar muayyan ma’noda sun’iydirlar va ularda inson ko‘ziga katta hojat ham yo‘q*). Yig‘ilgan va tahlil qilingan so‘z birikmalarining lug‘atlarimizda qayd qilinish darajasi 10 foizga ham yetmaydi, ular kodifikatsiya qilinmagan. Qolganlari so‘zlashuv tili va bizning shaxsiy izlanishimiz asosida yig‘ilgan bo‘lib, fikrimizcha tilimiz normalariga (o‘ta) zid bo‘lmasa kerak. Ularning ayrimlari muloqotda faol, ayrimlarini esa vaziyat, muhit va muloqot maqsadiga qarab qo‘llash mumkin. So‘z birikmalari komponentlarining o‘rin almashinuviga kelsak, ta’kidlasa bo‘ladiki, ko‘z *hokim* bo‘lib kelgan birikmalar

(qora ko‘z, ohu ko‘z)da ko‘zning xususiyati, unga xoslik, ko‘z *tobe* bo‘lib kelgan birikmalar (ko‘zi qora, ko‘zi ohu) da ko‘zning tasdig‘i va unga ega bo‘lgan muayyan shaxs e‘tiborda bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Stepanova M.S. “Teoriya valentnosti i valentniy analiz”. Moskva, 1973.
2. Irisqulov M. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent, 1992.
3. Axmanova O.S. “Slovar lingvisticheskiy terminov”. Moskva, 1969.
4. Abdurahmonov G., Mamajonov S. “O‘zbek tili va adabiyoti”. Toshkent, 2002.
5. Fortunatov F.F. “Istochnik lingvisticheskiy ucheniy”. Moskva, 1956.
6. Xo‘jayev T. Xorijiy filologiya jurnali. 3- son, 2005.
7. Ikramova F., Azizova A., Muhammedova D. O‘zbek tili. Toshkent, 1983.
8. Bahtiyorov M., Xoliyorov O., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 5- nashr, 2013.
9. Rasulova N., Supiyeva B. “Ona tilidan ma‘ruzalar”. Toshkent, 2016.
10. Hamrayev M. “Ona tili”. Toshkent, 2012.
11. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Sobirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. Darslik. Toshkent, 2015.
12. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili. (6-7-sinflar uchun) Toshkent, 2017.
13. Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili (8-sinf uchun) Toshkent, 2014.
14. Hojiyev A., Rahmatullayev Sh., Madaliyev B. va Madvaliyev A. “O‘zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari”. Toshkent 2017, 57-bet.
15. Vohidov E. “So‘z latofati”. Toshkent 2018, 56-bet.
16. Erkaboyeva N. “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami”, Toshkent: Akademnashr. 2015. 66-67- betlar.
17. Jumaniyozov A., Rahimova Sh. “O‘zbek tilidagi attributiv qo‘shma so‘zlar, yoxud bahuviyalar”. Urganch 2018. 18-21-betlar.

## REFERENCES

1. Stepanova M.S. (1973) "Theory valence and valence analysis". Moscow.
2. Iriskulov M. (1992) "Introduction to Linguistics" Tashkent.
3. Akhmanova O.S. (1969) "Dictionary of linguistic terms". Moscow.
4. Abdurahmonov G., Mamajonov S. (2002) "Uzbek language and literature". Tashkent.
5. Fortunatov F.F. (1956) "Istochnik lingvistichesky ucheniy". Moscow.
6. Khojayev T. (2005) Journal of foreign philology. Issue 3.
7. Ikramova F., Azizova A., Muhammedova D. (1983) The Uzbek language. Tashkent.
8. Bakhtiyorov M., Kholiyrov O'., Abdurahmonova N. (2013) Universal guide to the Uzbek language. 5th edition.
9. Rasulova N., Supiyeva B. (2016) "Lectures from mother tongue". Tashkent.
10. Hamrayev M. (2012) "Native language". Tashkent.
11. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Sobirov V., Zhoraboyeva Z. (2015) Mother tongue. Textbook. Tashkent.
12. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. (2017) Mother tongue. (for grades 6-7) Tashkent.
13. Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. (2014) Mother tongue (for 8th grade) Tashkent.
14. Hajiyeu A., Rahmatullayev Sh., Madaliyev B. and Madvaliyev A. (2017) "Issues of Uzbek terminology and lexicology". Tashkent, page 57.
15. Vahidov E. (2018) "The Grace of Words". Tashkent, page 56.
16. Erkaboyeva N. (2015) "Collection of lectures from the Uzbek language", Tashkent: Akademnashr. Pages 66-67.
17. Jumaniozov A., Rahimova Sh. (2018) "Attributive compound words in the Uzbek language, or conjunctions". Urganch. Pages 18-21.